MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



"BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK ANJUMAN TO‘PLAMI





28-29-MART
2025-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI

28-29 mart 2025 y

***

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОТЕХНОЛОГИЙ»

28-29 марта 2025 г.

JIZZAX – 2025

MEVALARDA UCHROVCHI KASALLIKLAR VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Po‘latova N.G‘.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetinig Jizzax filiali
nozimapolatova52@gmail.com

Annotatsiya: Mevalarning sog‘lomligi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mevalarga turli xil kasalliklar ta’sir qilishi mumkin bo‘lib, bu ularning sifati va saqlash muddatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mevalarda keng tarqalgan zamburug’li, bakterial va virus kasalliklari hamda ularni samarali boshqarish strategiyalari muhokama qilinadi. Kasalliklarni oldini olish va nazorat qilish bo‘yicha biologik, kimyoviy hamda agrotexnik usullar taqdim etiladi.

Kalit so’zlar: *Penicillium spp; Botrytis cinerea; Lasiodiplodia theobromae; Ershinia spp; Pseudomonas syringae; Plum pox virus; Trichoderma; Bacillus.*

Mevalar inson ratsionining muhim qismi bo‘lib, ularning sog‘lomligi va sifati aholi salomatligi hamda qishloq xo‘jaligining barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Kasalliklar har yili katta iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lib, ularning asosiy qismi qo‘ziqorin, bakteriya va virus patogenlari bilan bog‘liq. Ushbu maqolada mevalarning keng tarqalgan kasalliklari va ularni samarali boshqarish strategiyalari muhokama qilinadi[2].

Qo‘ziqorin kasalliklari postharvest yo‘qotishlarning asosiy sabablaridan biridir. Eng ko‘p uchraydigan qo‘ziqorin kasalliklari: Kulrang chirish (*Botrytis cinerea*) – uzum, qulupnay, olma va nok mevalarida tarqalgan bo‘lib, sovutish sharoitida ham rivojlanishi mumkin. Moviy chirish (*Penicillium spp.*) – sitrus mevalariga katta zarar yetkazadi va tez tarqaladi. Qora chirish (*Lasiodiplodia theobromae*) – mangostin va boshqa tropik mevalarda uchraydi[5].

Bakteriyalar meva yuzasida joylashib, mexanik shikastlanishlar orqali ichki to‘qimalarga kiradi: *Ershinia spp*. – olma va nok mevalarida o‘t poyasimon kasalliklarni keltirib chiqaradi. *Pseudomonas syringae* – gilos va o‘riklarda bakterial dog‘lanishlarni yuzaga keltiradi.

Mevalarda virus infektsiyalari kam uchrasa-da, ular meva hajmini kichraytirishi va sifatiga putur yetkazishi mumkin. *Plum pox virus* (PPV) shaftoli, o‘rik va olxo‘ride katta yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi[4].

Meva kasalliklarini kamaytirish uchun integratsiyalashgan boshqaruv tizimi qo‘llaniladi. Bu tizim biologik, kimyoviy va agrotexnik choralardan iborat. Biologik boshqaruv usullari. Antagonistik mikroorganizmlar – *Trichoderma* va

Bacillus turlari qo‘ziqorin patogenlariga qarshi samarali. O‘sish regulyatorlari – meva yuzasida himoya qatlam hosil qilib, patogenlar tarqalishining oldini oladi [1].

Kimyoviy boshqaruv usullari. Fungitsidlar – propikonazol, iprodion va boskalid singari moddalar meva saqlash jarayonida qo‘llaniladi. Antibiotiklar – bakterial kasalliklar uchun streptomitsin va oksitetrasiklin ishlatiladi [3].

Sog‘lom ko‘chat ekish – kasallik tarqalishining oldini olish uchun sifatli urug‘ va ko‘chat ishlatish muhim. Havoni nazorat qilish – optimal harorat va namlik patogenlarning rivojlanishini cheklaydi. Mexanik zararlarni kamaytirish – hosilni ehtiyotkorlik bilan terish va tashish infektsiyalarni kamaytiradi [6].

Xulosa: Meva kasalliklari qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish uchun integratsiyalashgan boshqaruv strategiyalari – biologik, kimyoviy va agrotexnik usullar qo‘llanilishi lozim. Ushbu yondashuvlar kasalliklarning tarqalishini kamaytirib, sifatli va sog‘lom mahsulot yetishtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1 Abbas, F., et al. "Postharvest fungal diseases and control strategies: An overview." Journal of Plant Pathology, 2019.101(2), 339-355.

2 Droby, S., et al. "Microbial ecology of fruit surfaces and its impact on postharvest pathology." Trends in Food Science & Technology,2022. 120, 85-97.

3 Haack, M., et al. "Biological control of fruit diseases: A review." Frontiers in Microbiology,2019. 10, 487.

4 Li, H., et al. "Molecular interactions between fruit microbiome and pathogens." Nature Communications,2022. 13(1), 1123.

5 Visanthanon, S. "Postharvest diseases of mangosteen fruit and their control." International Journal of Tropical Agriculture,1999. 17(3), 211-219.

6 Wenneker, M., & Thomma, B. P. "Postharvest decay of fruit and its control strategies." Current Opinion in Plant Biology,2020. 56, 110-116.

KLEBSIELLA MICHIGANENSIS BAKTERIYASINING SHOLICHILIKDAGI AHAMIYATI

Tuychiyeva M.G’., Mamatqulova I.E.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

maxliyotuychiyeva8@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda o‘simliklarga ko‘p miqdorda kimyoviy o‘g‘itlar bilan ishlov berilishi natijasida tuproqda og‘ir metallar to‘planmoqda. Bu esa o‘simliklarda stresga sabab bo‘lib ularning hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tuproq tarkibidagi og‘ir metallarni bartaraf etishni *enterobakteriaceae* oilasiga kiruvchi *klebsiella michiganensis* turi va sholi navlarida o‘rganilganligi haqida fikr yuritiladi.